

# NORDIC LIFE | 2025



**Muloqotlar**

Choraklik hisobotlar



**12<sup>son</sup>**

MAY • IYUN • IYUL

**2** Muzokaralar

Jaryonlar tahlili

**3** Munosabatlar

Muvaffaqiyat omili



# NORDIK HAYOTI

# NORDIC LIFE

nordicuniversity.org

 @nordic\_edu

# NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

Xalqaro Nordik universiteti rektori  
Sherzod Mustafakulov tahriri ostida

**Nashrga tayyorlaganlar:**  
M.Isaqova, M.Rahmonov

“Nordic Life” jurnalining **12-faslida** Xalqaro Nordik universitetining 2025-yil may, iyun va iyul oylaridagi faoliyati tahliliy hamda ilmiy yondashuv asosida yoritildi.

Mazkur faslda Yevropadagi ilg‘or ta’lim markazlarida o‘tkazilgan malaka oshirish kurslari, o‘qituvchilik mahoratini oshirishga qaratilgan tashabbuslar hamda talabalar almashinuvidagi ijobiy siljishlar keng yoritilgan.

Shuningdek, universitet ilmiy kengashi tomonidan yosh tadqiqotchilar faoliyatiga ko‘mak, ilmiy maktab vakillarining muvaffaqiyatli himoyalari, hamkorlik memorandumlari, ta’lim-sanoat integratsiyasiga oid tashabbuslarning amaliy natijalari jamlandi.



**INTILGANGA TOLE YOR!**

**WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!**



# MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	<b>5</b>
<b>Xalqaro Nordik universiteti Delegatsiyasi Yevropada malaka oshirmoqda!</b>	<b>6</b>
<b>Student Exchange: AQSHda Nordik iqtidorli talabalari</b>	<b>6</b>
<b>Ilmiy seminar majlisi o'tkazildi</b>	<b>7</b>
<b>Nordik nashrlariga ruxsatnomalar olindi</b>	<b>7</b>
<b>SPORT: Nordikda pozitiv kayfiyatga to'la estafeta!</b>	<b>8</b>
<b>Ta'limda innovatsion hamkorlik: Nordik universiteti va Leader Online – yangi bosqich sari</b>	<b>8</b>
<b>Graduated: endi ular magistr!</b>	<b>9</b>
<b>TasIMO-2025: Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi yuqori saviyada o'tkazildi!</b>	<b>10</b>
<b>Nordikning qadrli, eng zo'r volontyorlari!</b>	<b>11</b>
<b>MDH miqyosida yutuq: ustozimiz ko'krak nishoni sohibi!</b>	<b>13</b>
<b>Nordik delegati BRI-2025 xalqaro Forumida</b>	<b>13</b>
<b>Nordik talabalari “Talaba Expo - 2025” kasblar ko'rgazmasida</b>	<b>14</b>
<b>Sharhlovchilik san'ati: Qobilbek Karimbekov bilan ijodiy uchrashuv!</b>	<b>14</b>
<b>Shvetsiya delegatsiyasi Nordik universitetida: ta'lim va sanoat integratsiyasi yo'lida muhim uchrashuv</b>	<b>15</b>
<b>Nordikda dasturchilar bahsi!</b>	<b>16</b>
<b>Malakaviy imtihon o'tkazildi</b>	<b>17</b>
<b>Mustaqil izlanuvchilikka navbatdagi kirish imtihonlari o'tkazildi</b>	<b>17</b>
<b>“Caring the Environment” — ochiq osmon ostida dars!</b>	<b>17</b>
<b>Zukko kitobxon - zukko avlod!</b>	<b>18</b>
<b>Ochiq dars adabiyot bayramiga aylandi!</b>	<b>19</b>
<b>Nordikdan bolajonlarga mehr-e'tibor va sovg'alar!</b>	<b>20</b>
<b>Psixologiya: bugun va ertaga! Nordik universitetida muhim forum</b>	<b>20</b>
<b>Nordikda amaliyotchi jurnalistlar uchun 5 kunlik trening o'tkazildi!</b>	<b>21</b>
<b>Magistrantlar konferensiyasi: musiqa ta'limini o'qitish keng muhokamada</b>	<b>21</b>
<b>Nordikda Estoniya biznes delegatsiyasi!</b>	<b>22</b>

---

Xalqaro tashrif: Nordik uchun yangi imkoniyatlar!	22
Samimiylashuv!	23
Nordik yangi xalqaro loyiha ishtirokchisi	23
2024-2025 o'quv yili: talabalar noakademik faoliyati e'tirof etildi!	24
Nordik bilan yoz - Finlandiyada!	24
Nordik va RIET: ilmiy hamkorlik o'rnatildi	25
REKTOR KUBOGI: maydonda babs qizg'in kechdi!	25
"E voh" - Erkin Vohidov xotirasiga ehtirom!	26
Nordikda yana bir muhim memorandum!	27
"Prokuror sovrini" olimpiadasi: farg'onalik matematika o'qituvchilari faol ishtirok etdilar!	27
Matbuot xizmatlarining uch kuchi: SMM, AI va mobilografiya o'rganildi	28
Nordik magistranti "Oltin qalam" mukofotini qo'lga kiritdi!	28
Universitet Kengashining 7-son yig'ilishi bo'lib o'tdi	29
Yangi nashrlar - kelajak ilmlariga poydevor!	29
PhD darajasiga yo'l: Nordik seminarida dissertatsiyalar muhokamasi	30
Nordik yangi nashrlariga ruxsatnomalar olindi	31
XNU Kengashida navbatdagi himoyalari muvaffaqiyatli yoqlandi	32
Nordikda imtihon atmosferasi!	33
Koreya stipendiyasi: talabalar yutug'i!	33
Nordik oilasi yanada kengaymoqda!	34
Talabalar ta'tilda ham Nordik bilan!	34

---

## KIRISH

Nordik universitetida may, iyun va iyul oylari ilm, hamkorlik va yangiliklarga boy kechdi. Universitet jamoasi ta'lif tizimini yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lish va innovatsion muhitda faoliyat yuritish yo'lida salmoqli qadamlar tashladi.

Bu davrda Yevropaning ilg'or ta'lif institutlarida o'tkazilgan mala-ka oshirish kurslari orqali pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'rganish imkoniga ega bo'lishdi. Talabalar almashinushi sa-marali bosqichga chiqib, yangi xalqaro platformalarda O'zbekiston yoshlaringin ishtiroki mustahkamlandi.

Ilmiy kengash faoliyati yosh tadqiqotchilarning g'oyalarini amaliy tadqiqotlarga aylantirishga xizmat qildi. Nordikda yaratilgan yangi adabiyotlar uchun ruxsatnomalar olinib, ilmiy-nazariy bazaning bo'yishiga asos yaratildi.

Bir guruh iqtidorli talabalar Koreya grantlarini qo'lga kiritdi, ma-gistrlar esa "Oltin qalam" mukofotiga loyiq topildilar.


Ta'lif va sanoat integratsiyasi bo'yicha ilg'or muzokaralar, star-tap loyihalarni qo'llab-quvvatlash tashabbuslari, seminar-treninglar orqali innovatsion tashabbusla ilgari surildi.

Eng muhimi, Nordik universitetining ilk magistr bitiruvchilari o'z diplomlarini tantanali ravishda qo'lga kiritishdi – bu tarixiy kun, universitetning amaliy natijalarini ifodalovchi yutuqdir.

Ushbu son – nafaqat hisobot, balki tahlil, yondashuv va ilmiy xu-losa uyg'unligi asosida tuzilgan o'ziga xos kuzatuvdir. "Nordic Life" o'quvchilari bu sonda ham yangiliklar, yutuqlar va universitet hayo-tidan lavhalar bilan yaqindan tanishadilar.

## Xalqaro Nordik universiteti Delegatsiyasi Yevropada malaka oshirmoqda!

**2.05.2025.**



Xalqaro Nordik universitetining bir guruh delegatsiyasi Finlandiyaning Yuvaskula universiteti hamda Shvetsiyaning Lund universitetida “**Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**” yo’nalishida malaka oshirish dasturida ishtirok etishdi.

Mazkur xalqaro kurs doirasida delegatsiya a’zolari:

- Nufuzli xalqaro jurnallarda maqola yozish metodikasi,
- Ilmiy izlanishlarni rejalashtirish va boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni chuqr o'rganishdi.

## Student Exchange: AQSHda Nordik iqtidorli talabalari

**3.05.2025.**



AQSHning nufuzli Lawrence Technological Universityda ta'lim olayotgan Xalqaro Nordik universiteti talabalari – **Muzammilxon Muradullayev, Doniyor Murodullayev va Sardorbek Sirojiddinov** “Student Exchange” dasturi doirasida Data Science va Iqtisodiyot yo’nalishlarida muvafqiyatli tahsil olib, xalqaro sertifikat bilan taqdirlandilar.

Ushbu tajriba nafaqat akademik bilimlarini, balki global fikrash, innovatsion yondashuv va texnologik ko’nikmalarni chuqurlashtirishga xizmat qildi. Tahsil olish davomida talabalar qiziqarli va xotiralariga boy sayohatlar ham qilishdi.

## Ilmiy seminar majlisi o'tkazildi

**7.05.2025.**



Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2022. I.157.01 raqamli ilmiy kengash qoshida navbatdagi ilmiy seminar majlisi bo'lib o'tdi.

Unda universitetning mustaqil taddiqotchisi **Elshod Umarov**ning 08.00.03 - "Sanoat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun "**Yashil iqtisodiyot rivoj-**

**lanishining ishlab chiqarish resurslariga ta'sirini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari**" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi keng muhokama qilindi.

Mazkur ilmiy ishda sanoat iqtisodiyoti sohasida dolzarb bo'lgan ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari chuqur taddiq qilinganligi e'tirof etildi.

## Nordik nashrlariga ruxsatnomalar olindi

**12.05.2025.**



Professor-o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan qator darslik va o'quv qo'llanmalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etildi va guvohnomalar taqdim qilindi.

Tasdiqlangan adabiyotlar:

**"Mikroekonomika"** darsligi (Sh.Mustafakulov, X.Sabirov, R.Mardanova)

**"Amaliy matematika"** o'quv qo'llanmasi (A.Boltayev, X.Xudoyberdiyev, B.Atamuradova)

**"Makroekonomicheskiy analiz"** darsligi (X.Sabirov, R.Mardanova, E.Umarov)

**"Makroiqtisodiy tahlil"** darsligi (X.Sabirov, R.Mardanova, K.Ibragimova, Sh.Rajabov)

**“Makroiqtisodiy siyosat”** darsligi (R.Mardanova, I.Qodirov, Z.Uralbayev)

**“Orkestr sinfi”** o’quv qo’llanmasi (I.Ro’zimurodov)

**“English for management”** darsligi (D.Nasriddinov)

**“Maktabgacha ta’lim asoslari”** o’quv qo’llanmasi (D. Maxmudova).

Ilmiy salohiyat, amaliy tajriba va metodik yangiliklar uyg‘unligida yaratilayotgan har bir nashr talabalar uchun sifatli ta’limga yo’naltirilmoqda.

## **SPORT: Nordikda pozitiv kayfiyatga to’la estafeta!**

**12.5.2025.**



*Nordik universitetida sport shukushi - “Besh tashabbus” doirasida o’tkazilgan estafeta musobaqalari talabalar o’rtasidagi do’stlik va jamoaviylik ruhini yanada mustahkamladi.*

Ishtirokchi jamoalar qiziqarli shartlar bo'yicha kuch sinashdi va chaqqonlik, tezlik hamda o'zaro hamjihatlikni namoyish etishdi.

### **Top-3 jamoa:**

“Bright Peak” - tezlikda champion!

“Fasters” - o’z nomiga munosib!

“Progress” - olg’a harakatda bo’ldi.

G’oliblar medal va esdalik sovg’alari bilan taqdirlandilar, barcha ishtirokchilarga esa minnatdorchilik bildirildi.

## **Ta’limda innovatsion hamkorlik: Nordik universiteti va Leader Online - yangi bosqich sari**

**15.05.2025.**



*Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafkulov va Leader Online – EdTech kompaniyasi hamda “Lider” xususiy maktabi direktori Feruza Vahobova o’rtasida uchrashuv bo’lib o’tdi.*

Uchrashuv davomida akademik hamkorlikni chuqurlashtirish, raqamli ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, maktab o’quvchilari uchun bakalavriat bosqichida xalqaro ta’lim dasturlariga yo’l ochish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Yuqori sifatli ta’limni ta’minlash va ta’lim innovatsiyalarini keng qo’llash, talabalarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish va akademik salohiyatini oshirishni nazarda tutuvchi hamkorlik Memorandumni imzolandi.

## Graduated: endi ular magistr!

**16.05.2025.**



2025-yil 16-may - Xalqaro Nordik universiteti tarixida oltin harflar bilan bitiladigan unutilmas sanalardan biri bo'ldi.

Shu kunda universitet ilk bor o'zining qaldirg'och magistr-bitiruvchilarini katta hayot sari tantanali kuzatdi.

Bitiruv oqshomida bitiruvchilar va ularning oila a'zolari, yaqinlari hamda ustozlar faxr va quvonch bilan ishtirok etdilar.

Yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shishga tayyor, zamonaviy tafakkurga ega magistrlar oldida universitet rektori, professor **Sherzod Mustafakulov** ezgu tilaklar bilan chiqish qilib, ularga kelgusidagi ilmiy, kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tiladi.

Bitiruv kechasida taqdim etilgan videoroliklar orqali **Nordik hayoti** - o'qish davomida kechgan yorqin onlar qayta yodga olindi. "Nordik taronasi" ansamblining mahoratli ustoz san'atkori ijrosidagi kuy-qo'shiqlar davraga o'zgacha ruh bag'ishladi. Universitet Madhiyasi talabalar jo'rligida ijob etilar ekan, har bir ishtirokchi bu jamoaning bir bo'lagi ekanidan faxr hissini tuydi. Magistrlar va Nordik uchun bu tarixiy quvonchli lahzalar esdalik suratlariga muhrlandi.

"Bitiruvchi-2025" nafaqat magistrlar bayrami, balki Nordik universitetining kamol sari dadil odimlayotgan yo'lida yangi sahifa bo'ldi. Diplom topshirish marosimi ilm, mehnat va orzular uyg'unlashgan bayram sifatida tantanali nishonlandi.

## TasIMO-2025: Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi yuqori saviyada o'tkazildi!

**18.05.2025.**



*Ilm-fanga sadoqat, do'stlik muhiti va teng imkoniyatlari bilan ajralib turuvchi xalqaro tarixiy tadbir bilimdonlarga yana o'z eshiklarini ochdi!*

Olimpiadaga yurtimizning barcha viloyatlari hamda Bolgariya, Xitoy, Gruziya, Germaniya, Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston, Turkmaniston, Mongoliya, Rossiya kabi davlatlardan tashrif buyurgan yosh matematiklar

o'z hududlari sharafini himoya qildilar. Turli davlatlarda bilim olgan yoshlarning eng bilimdonlari - milliy terma jamoalar vakillari ham bellashdilar.

TasIMO - o'quvchi-yoshlarga katta ishonch va rag'bat bag'ishladi! Tantanali ochilish, maxsus esdalik sovg'alari, musobaqa maydonida hukm surayotgan hayajon! Final bosqichi ana shunday kechdi! Mahalliy va xorijiy o'quvchi-talabgorlar hal qiluvchi musobaqada bor bilimlarini ishga soldilar!

Olimpiada finalchilari uchun Tashkent City Malldagi "**Jadidlar. Turkistonga maktublar**" nomli multimedia ko'rgazmasidan boshlab **Adiblar xiyoboni** va **Magic City**gacha qiziqarli sayohat uyushtirildi. **Toshkent politexnika muzeyida** yosh matematiklar retro avtomobillar bilan tanishdilar. Texnologiya muhitida bilim doiralarini kengaytirdilar.



TasIMOchilar, shuningdek **Green Hills resort**da Bo'stonliqning betakror tabiatiga, tog'lar bag'ridagi sokinlik va yashillikdan bahra oldilar. Matematika festivali qiziqarli interaktiv o'yinlar va musiqa, animatorlar bilan shou to'lqinida kechdi.

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida "TasIMO-2025" olimpiadasining g'oliblarini tantanali taqdirlash va yopilish marosimi bo'lib o'tdi. Yurtimiz va dunyoning top bilimdonlari g'oliblik shohsupasiga ko'tarildilar. 100 % yechim uchun Faxriy diplomlar, akademik-olim nomidagi Gran-pri, oltin, kumush, bronza medallari, pul mukofotlari – TasIMO taqdirlash marosimida o'z egalariga tantanali topshirildi!

### **Nordikning qadrli, eng zo'r volontyorlari!**

**23.05.2025.**



"TasIMO-2025" sizlarsiz bo'lmadi! Bu tadbirimizning sahna ortidagi real qahramonlari bo'ldingiz!

Har biringizning suratlaringizni ko'rsatish uchun qidirdik, rasmda bor-yo'q har biringiz ham Nordik oilasining yuragi, eng aktiv a'zosisiz!

Barchangizga respect va sizlarni tarbiyalagan ota-onangizga chin dildan rahmat!

**Doimo Sizlar bilan,  
Nordik universiteti ma'muriyati**

Aziz hamkasblar, qadrli Nordik oilasi!



*"TasIMO-2025" kampaniyasi va boshqa yuksak darajada tashkil etilgan tadbirlar ortida turgan siz – Nordik qahramonlari, bizning faxrimizsiz!*

Sizlarning mas'uliyatingiz va ishga mehrli yondashuvningiz tu-fayli har bir loyihada yorqin natijalarga erishyapmiz.

Rahmat sizga, mehribon, mehnatkash va professional jamoamiz!

## MDH miqyosida yutuq: ustozimiz ko'krak nishoni sohibi!

**23.05.2025.**



Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida “**Vatan iftixori**” xalqaro ilmiyamaliy ko'rlik-tanlovida Nordik universiteti yosh olimining yutuqlari e'tirof etildi.

Iqtisodiyot va biznesni boshqarish kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Xasan Sabirov muvaffaqiyatli natija qayd etdi - “Vatan iftixori” esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Shuningdek, g'olib ustozimizga Sertifikat, esdalik sovg'alar va Samarcand shahri bo'ylab sayohat imkoniyati taqdim etildi.

## Nordik delegati **BRI-2025** xalqaro Forumida

**25.05.2025.**



Akademik ishlar departamenti Ta'llimi ni rivojlantirish bo'limi boshlig'i Mashhurbek Maqsudov **Xitoy Xalq Respublikasida** ta'llim safarida bo'ldi.

U Zhejiang universiteti tashkilotchiligidagi Xioashan shahrida o'tkazilayotgan “2025 BRI Forumi” doirasidagi xalqaro simpoziumda ishtirok etdi. Mazzkur anjumanda Xitoy va Markaziy Osiyo

o'rta sidagi madaniyat, turizm, ta'llim va sanoat yo'nalishlaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Tajribali xorijiy olimlar bilan bir qatorda Nordik universiteti professorlari tomonidan tayyorlangan “Bir makon, bir yo'l: O'zbekiston va Markaziy Osiyo istiqbollari” mavzusidagi taqdimot amalga oshirildi.

## **Nordik talabalari "Talaba Expo - 2025" kasblar ko'rgazmasida**

**26.05.2025.**



Toshkent shahridagi "Zakovat" arenasida talabalar festivali o'zgacha ruhda o'tdi. Ko'rgazma maydonida yetakchi kompaniyalar tomonidan talabalar uchun real ish imkoniyatlari taqdim etildi.

Nordik universitetining magistratura mutaxassisligi talabalar ko'rgazmada ishtiroy etib, top kompaniyalar mutaxassislari bilan yuzma-yuz suhbat, ishga joylashish uchun ariza topshirish, bilim va aloqalarni kengaytirish va networking imkoniyatlardan unumli foydalandilar.

**Sharhlovchilik san'ati: Qobilbek Karimbekov bilan ijodiy uchrashuv!**

**27.05.2025.**



*«Jurnalistda xumor, ko'nikma va tajriba bo'lishi kerak» - taniqli siyosiy sharhlovchi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Qobilbek Karimbekov Jurnalistika yo'naliishi va mutaxassisligi talabalar bilan bo'lib o'tgan mahorat darsida shufikrغا urg'u berdi.*

Uchrashuvda u siyosiy sharh tayyorlash bo'yicha o'z tajribalari, ko'plab ommaviy axborot vositalaridagi faoliyati, yangi nashr - «Sharhlovchining mashaqqatli yo'li» kitobi haqida so'z yuritdi.

**Sharhlovchilikda muvaffaqiyatga erishish uchun nima kerak?** Bu borada ustoz-sharhlovchi talabalarga zarur tavsiyalar berdi:

*Tarixiy, siyosiy, geografik bilimlar;  
diplomatiya asoslarini o'rganish;  
xalqaro materiallar tayyorlashda tashqi siyosatni chuqur bilish;  
xalqlarga xos urf-odatlarni bilish;  
savol berish madaniyati va tahliliy yondashuvga ega bo'lish.*

Uchrashuvda har bir jurnalist har doim izlanishda bo'lishi va xalqaro maydonda sodir bo'layotgan voqealarga befarq bo'lmasligi kerakligi ta'kidlandi.

## **Shvetsiya delegatsiyasi Nordik universitetida: ta'lim va sanoat integratsiyasi yo'lida muhim uchrashuv**

**29.05.2025.**



*Xalqaro Nordik universiteti navbatdagi nufuzli xalqaro mehmonlarni qarshi oldi.*

Shvetsiya Tashqi ishlar vazirligi Savdo siyosati departamenti bosh direktori **Kamilla Mellander** boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistoniga tashrifi doirasida Nordik universitetida bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi mutasaddilari hamrohligidagi delegatsiya va Nordik universiteti rahbariyati o'rtaida samimiy muloqot o'tkazildi.

Delegatsiya tarkibida "EOL Vent Mining", "Sandvik", "Epiros", "Scania", "Skf", "Ericsson", "Atlas Copco" kabi Shvetsiyaning yirik, ilg'or sanoat kompaniyalari rahbarlari va menejerlari ishtirok etdilar. Mazkur kompaniyalar konchilik, mashinasozlik, axborot texnologiyalari va energetika sohalarida innovatsion yechimlari bilan tanilgan.

Uchrashuvda ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash, innovatsion, ta'lim va sanoat hamkorligi asoslarini shakllantirishga ahamiyat qaratildi.

Tashrif doirasida mehmonlar universitet infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati va xalqaro loyihalari bilan tanishtirildilar. Uchrashuvda ta'lim va sanoat integratsiyasi, talabalar amaliyoti, qo'shma ilmiy loyihalar, hamkorlikda inkubatsiya markazlari yaratish, soha mutaxassislarini tayyorlash kabi dolzorb masalalarda fikr almashildi va kelishuvlar amalga oshirildi.

Nordik universitetining xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasi-dagi strategiyasi Shvetsiya kabi ilg'or davlatlar bilan hamkorlikda zamonaviy, raqobatbardosh va amaliy bilimlarga asoslangan ta'limgizni shakllantirishga xizmat qiladi.

## Nordikda dasturchilar bahsi!

29.05.2025.



Hakaton doirasida “Eng yaxshi dasturchi” tanlovi bo‘lib o’tdi va talabalar o‘z salohiyatlarini namoyon etdilar!

### G‘oliblarimiz bilan tanishing:

**1-o‘rin:**

**Lochinbek Abdullayev** – 1-KI-24-guruhi talabasi

**Imomjon Nazarov** – 1-KI-24-guruhi talabasi.

**2-o‘rin:**

**Dilmurod Almurotov** – 1-KI-23-guruhi talabasi.

**3-o‘rin:**

**Shahzod Mirzarahmatov** – 1MDS-24-guruhi (magistratura) talabasi.

IQ, ijod va innovatsiya sinovlarida yuqori natijalar ko‘rsatgan talabalar taqdirlandilar.

## Malakaviy imtihon o'tkazildi

**29.05.2025.**



Xalqaro Nordik universitetida 08.00.16 - "Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihonlar bo'lib o'tdi.

Imtihon jarayoniga O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, iqtisod fanlari doktori, professor **Saidahror G'ulomov** raislik qildi.

Mazkur imtihon OAKning belgilangan Nizomi asosida o'tkazilib, izlanuvchilarning tadqiqot yo'nalishidagi bilimlari, tahlil va strategik fikrlash qobiliyati, maxsus fanlardagi kasbiy malakasi sinaldi va baholandi.

## Mustaqil izlanuvchilikka navbatdagi kirish imtihonlari o'tkazildi

**30.05.2025.**



XNU Oliy ta'lifdan keyingi ta'lif institutida 2025-yilning uchinchi chораги учун mustaqil izlanuvchilikka hujjat topshirgan talabgorlarni saralash tanlovi tashkil etildi.

Tanlovda 08.00.03 - "**Sanoat iqtisodiyoti**", 08.00.07 - "**Moliya, pul muomalasi va kredit**", 08.00.13 - "**Menejment**" ham-

da 13.00.02- "**Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)**" ixtisosligi bo'yicha talabgorlar suhbatdan o'tkazildi.

Imtihindan mustaqil izlanuvchilikka talabgorlarning mutaxassislikka oid bilimlari, innovatsion yondashuvi va ilmiy salohiyati sinaldi hamda baholandi.

## "Caring the Environment" – ochiq osmon ostida dars!

**31.05.2025.**

O'quv yili ajoyib lahzalar bilan yakun topmoqda! Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi talabalari Adiblar xiyobonida ochiq osmon ostida dars o'tdilar.



Interfaol o'yinlar, brain battle, mini challenges, teamwork va eco-awareness bilan dars qizg'in kechdi.

O'qituvchi Durdona Azizova boshchiligidagi bu mashg'ulot na-faqat bilim, balki motivatsiya ham ulashdi.

## Zukko kitobxon - zukko avlod!

31.05.2025.



Xalqaro Nordik universitetining "Zukko kitobxon" loyihasi doirasida pedagog-talabalar, yosh onalar va bolajonlar uchun ijodiy uchrashuv tashkil etildi.

Onlayn uchrashivda "**Mening alifbe kitobim**" va "**Uyatchan fil**" kitoblarining taqdimoti o'tkazildi. Muallif – pedagogika

fanlari bo'yicha falsafa doktori, bolalar yozuvchisi va illustratori **Dinara Mo'minova** ishtirokchilarni mazkur yangi kitoblar bilan tanishtirdi.

Uchrashuvda muallif bolajonlar bilan monitor orqali onlayn joni suhbat o'tkazdi. Qiziqarli Alifbe bilan tanishuv, uyatchanglikni yengish yo'llari, muallif mutolaasi orqali sirk olamiga sayohat va tasvirlash - rasm chizish mashg'ulotlari, ayniqsa turli sovg'alar bolajonlarga quvonch ularashdi.

Uchrashuvda pedagog-talabalar **picturebook** - rasmlli kitob janri bilan tanishdilar. Bolalar bilan kitobxon soatlarini o'tkazish, muto-laajarayonini boyitishda kerakli amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldilar. Shuningdek, matn va rasm uyg'unligini ta'minlashda zarur jihatlarni o'rgandilar.

## Ochiq dars adabiyot bayramiga aylandi!

**2.06.2025.**



*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talaba-qizlari ishtirokida «G'arb bolalar adabiyoti» fani doirasida ochiq dars o'tkazildi.*

Talabalar darslar davomida olgan nazariy bilimlarini amaliy tarzda namoyon etishdi — badiiy asarlar bo'yicha bilimlar bellashuvi, sahna ko'rinishlari va ijodiy chiqishlar - bularning barchasi darsni unutilmas lahzalar bilan to'ldirdi.

Eng faol va iqtidorli ishtirokchilar ustozlari **Sitorabonu**dan esdalik sovg'alarini qabul qilib olishar ekan, yuzlarida faxr va quvonch aks etdi.

Yana bir yangilik — talabalar darsdan ilhomlanib yaratgan **suratli bolalar kitoblarini** Pedagogika kafedrasи ustozlari qoshida taqdimot qilib berishdi.

## Nordikdan bolajonlarga mehr-e'tibor va sovg'alar!

**2.06.2025.**



Xalqaro bolalar kuni bayramida barchaning mehri va e'tibori bolalar bilan birga bo'ldi!

Toshkent shahri, Olmazor tumanida-gi **522-sonli** ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat Maktabgacha ta'lif tashkilotida alohida yordamga muhtoj bolajonlar uchun Xalqaro Nordik universiteti tomonidan xayriya tadbiri tashkil etildi.

Bu ezgu tashabbusda Nordik oilasi bolajonlarga sovg'alar ulashdi, birga o'yin-kulgu qilindi, ularning chehrasidagi beg'ubor tabassumlar esa Nordikchilarga eng katta mukofot bo'ldi!

## Psixologiya: bugun va ertaga!

### Nordik universitetida muhim forum

**3.06.2025.**



Ta'limdi rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamkorligida "Psixologiya: zamonaviy chaqiriqlar, yangi g'oyalari va yechimlar" mavzusida forum o'tkazildi.

Forumning asosiy maqsadi - ta'lif tizimidagi barcha ishtirokchilar - o'quvchilar, ota-onalar, ustozlar va mutaxassislar uchun psixologik farovonlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlarni aniqlash va amaliyotga joriy etish.

Forum doirasida: zamonaviy psixologik yondashuvlar taqdim etildi. Innovatsion yechimlar muhokama qilindi va psixologlar, pedagoglar va ekspertlar o'zaro tajriba almashishdi.

Forum ochilishida mutasaddilar tomonidan ta'lif jarayonida sog'lom psixologik muhit yaratish va tizimli yondashuvlarning ahamiyati keng muhokama qilindi.

## **Nordikda amaliyotchi jurnalistlar uchun 5 kunlik trening o'tkazildi!**

**3.06.2025.**



*Euronews xalqaro media kompaniyasining O'zbekistondagi ofisi faoliyati doirasida 5 kunlik intensiv amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.*

O'zbekistonning yetakchi ommaviy axborot vositalari vakillari ushbu treningda professional ustozlardan yangi bilim, yan-gicha yondashuvlarni o'rghanishdi.

Treningda tajribali mutaxassislar - **Serdjio Kantone** (Euronews bosh muhariri o'rnbosari), **Boyan Brkich** (Euronews

Qozog'iston ofisi rahbari) tomonidan mahorat darslari o'tildi.

Treningning 1-kunida kamera oldida so'zlash mahorati, intervyuga tayyorgarlik va to'g'ri savol tuzish kabi muhim mavzular doirasida malaka oshirildi.

## **Magistrantlar konferensiyasi: musiqa ta'lrimini o'qitish keng muhokamada**

**4.06.2025.**

*Nordik universitetida "Globallashgan ta'limg sharoitida uzlucksiz musiqa ta'limi tizimida o'qitish muammolari" mavzusida respublika ilmiy nazariy va amaliy konferensiya o'tkazildi.*

Konferensiyada O'zbekistonning yetakchi oliygohlaridan tashrif buyurgan Musiqa ta'limi va san'at magistratura mutaxassisligi iqtidori talabalari, professor-o'qituvchilar ishtiroy etdilar.

Yalpi yig'ilish ochilishida Nordik rahbariyati, "**Musiqa ta'limi**" kafedrasi mudiri, professor **Qurban niyoz Panjiyev** musiqa ta'limi va san'ating bugungi globallashuv davridagi ahamiyatiga to'xtaldi.

Tadbir davomida respublika oliygohlari magistrantlari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari keng muhokama qilindi. Xususan, musiqashunoslik, etnomusiqashunoslik, musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda innovatsion ta'limg texnologiyalari, mustaqil ta'limgi tashkil etishning samarali usul va vositalari, ijrochilik an'analari, pedagogik kadrlar tayyorlashning muammo va yechimlari kabi qator mavzularda qizg'in muhokamalar bo'lib o'tdi.

Yig'ilish yakunida sho'ba raislarining hisobotlari tinglandi va eng faol ishtiroychilar taqdirlandilar.

## Nordikda Estonia biznes delegatsiyasi!

9.06.2025.



Estoniya Tashqi ishlar vazirligi va Savdo-sanoat palatasi ko'magida «II O'zbekiston-Estoniya xalqaro biznes forumi» bo'lib o'tdi!

Estoniyaning O'zbekistondagi elchisi Yaap Ora va Finlandiyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli Alisher Jo'rayev forumni ochib berdi va ikki tomonlama aloqalarning yangi bosqichiga yo'l ochildi.

Forumda ikki davlat vazirlik va idoralari, jami 40 dan ziyod Estonia ning yetakchi kompaniyalari mutaxassislari va o'zbekistonlik tadbirkorlar ishtirok etdilar.

Estoniya savdo-sanoat palatasi vakili Margus Ilmjarv Estonia biznes delegatsiyasi vakillarini tanishtirib o'tdi. Silsteve terminal kompaniyasi direktori Jaanus Paas, Clemco Baltic kompaniyasi vakili Svetlana Laanela va qator yetakchi eston kompaniyalari mutaxassislari biznes manfaatlari va hamkorlik imkoniyatlarini taqdim etdilar.

Biznes forumda ilgari surilgan mavzular, takliflar doirasida muhokamalar bo'lib o'tdi.

## Xalqaro tashrif: Nordik uchun yangi imkoniyatlar!

9.06.2025.



Xalqaro Nordik universitetiga Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti amaldagi raisi, Finlandiya tashqi ishlar vaziri Elina Valtonen boshchiligidagi yuqori martabali fin diplomatlari tashrif buyurdilar.

Tashrif Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashi doirasida amalga oshdi.

Uchrashuvda nufuzli mehmonlar Finlyandiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy ta'lim, biznes va investitsiya loyihalari bo'yicha o'ziga xos platformasi bo'lgan Xalqaro Nordik universiteti tomonidan amalga

oshirilgan ishlar va kelajak rejalari bilan tanishtirildilar.

Samarali o'tgan uchrashuv yakunida tomonlar hamkorlikni chuqur-lashtirishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

Xalqaro Nordik universitetiga Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti amaldagi raisi, Finlandiya tashqi ishlar vaziri Elina Valtonen boshchiligidagi yuqori martabali fin diplomatlari tashrif buyurdilar.

Tashrif Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashi doirasida amalga oshdi.

Uchrashuvda nufuzli mehmonlar Finlyandiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy ta'lif, biznes va investitsiya loyihalari bo'yicha o'ziga xos platformasi bo'lgan Xalqaro Nordik universiteti tomonidan amalga oshirilgan ishlar va kelajak rejalari bilan tanishtirildilar.

Samarali o'tgan uchrashuv yakunida tomonlar hamkorlikni chuqur-lashtirishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

## **Samimiy tashakkur!**

**11.06.2025.**



Xalqaro Nordik universiteti jamoasi nomidan finlandiyalik Aija Elg, Tapio Rauno va Johanna Porkkalaga o'quv yili davomida o'z bilimlarini talabalar va ustozlar bilan bo'lishganlari uchun chuqur minnatdorchilik bildiramiz!

Bugun sizlar Finlandiyaga yo'l olayotgan bo'lsangiz-da bilimlaringiz va iliq xotiralariningiz Nordik bilan qoladi.

## **Nordik yangi xalqaro loyiha ishtirokchisi**

**12.06.2025.**



Lissabonning Nova universiteti (Universidade Nova de Lisboa) O'zbekistonda yangi xalqaro hamkorlik loyihasini yo'lga qo'ydi. Universitet prorektori João Amaro de Matos Xalqaro Nordik universitetiga tashrif buyurdi va uni Boshqaruv Kengashi raisi Alisher Juraev kutib oldi.

## 2024-2025 o'quv yili: talabalar noakademik faoliyati e'tirof etildi!

**13.06.2025.**



Universitetimizda eng faol, iqtidorli va tashabbuskor talabalar taqdirlandi!

“Eng faol klublar”, “Eng faol volontyorlar” “Yil klub sardori”, “Yilning eng yaxshi tashabbuskor klubi”! Bu kabi qator nominatsiyalar bo'yicha mukofotlar, esdalik sovg'alari, Tashakkurnoma, ota-onalarga Rahmatnomalar o'z egalariga topshirildi.

Videorolik, tabrik nutqlari, musiqiy tuhfalar barchasi Nordikning lider talabalariga bag'ishlandi.

## Nordik bilan yoz – Finlandiyada!

**16.06.2025.**



Xalqaro Nordik universitetining magistrantlari va xodimlari yozni “Work and Travel” asosida Helsinki shahri yaqinidagi tabiat bag'rida va Kesalahti shaharchasi o'tkazmoqdalar.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida bu yoz ular uchun – yangi tajriba, ishlash va sayohat qilish fasli!

## Nordik va RIET: ilmiy hamkorlik o'rnatildi

**20.06.2025.**



Tsinghua universitetining (Xitoy) Atrof-muhit innovatsiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (RIET) Vitse-Prezidenti Xin YAO bosh-chiligidagi delegatsiya Nordik universitetida mehmon bo'ldi.

Uchrashuvda Nordik va RIET faoliyati, O'zbekiston va Xitoy shaharlari, yashil sanoat, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar yo'naliishida muloqotlar olib borildi.

RIET instituti Tsinghua universitetining Xitoyda ekologik taraqqiyotga xizmat qiluvchi markazi bo'lib, Suzhou shahrining barqaror va innovatsion rivojlanishiga faol hissa qo'shadi.

Institut delegatsiyasi bilan kelgusida faol ilmiy hamkorlikka kelishildi.

## REKTOR KUBOGI: maydonda bahs qizg'in kechdi!

**28.06.2025.**



*Nordikda yozgi ta'tilda ham “**Dolzarb 90 kun**” loyihasi bilan faollik hukm surmoqda!*

Talaba-yoshlari, xodimlar va ustozlar uchun ta'tilda ham eshiklar ochiq!

Universitetda “Rektor kubogi” uchun futbol musobaqlari qizg'in o'tkazildi. Xodimlardan tuzilgan 10 ta jamoa futbol musobaqasida ishtirok etib, kubokka ega bo'lish uchun kurash olib bordi. Har bir golda hayajon, har bir daqiqada jamoaviy ruh va g'alabaga intilish ustunlik qildi.

Final uchrashuvi “Teachers” va “Media” jamoalari o'rtasida bo'lib o'tdi. G'alabani qizg'in tarzda qo'lga kiritgan Media jamoasi 2:0 hisobida zafar quchdi va Rektor kubogi sohibiga aylandi!

Bu sport tashabbusi Nordikda sog'lom turmush tarzini yanada qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi.

**“E voh” – Erkin Vohidov xotirasiga ehtirom!****18.06.2025.**

«Dolzarb 90 kun» doirasida Bo'stonliqdagi "Green Hills Resort"da o'tkazilgan Erkin Vohidov "E voh" an'anaviy ijodiy festivalida Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulov boshchiligidagi jamoa ishtirok etdi.

Tadbir doirasida O'zbekiston Qahramoni, erkin fikr va milliy ruh targ'ibotchisi Erkin Vohidovga bag'ishlangan **haykal** va **bog'** tantanali ravishda ochildi.

Bronza haykal faqatgina shoirning emas, millatimiz g'ururi, qalbi va erkini o'zida mujassam etgan timsollardan biri bo'ldi. Bu bog' esa endilikda so'z, she'r va ma'naviyat makonidir.

Anjumanda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston Xalq shoiri **Sirojiddin Sayyid** Erkin Vohidov nomi yuraklarda yashovchi, milliy ruhni uyg'otuvchi adabiy meros ekanligi, betakror ijodi bilan tom ma'noda o'ziga haykal qo'ya organini e'tirof etdi. Anjuman hamkor - **Nordik universiteti rahbariyatiga kitoblar jamlanmasi tuhfa qildi**.

O'zbekiston Qahramoni **Ibrohim G'afurov** shoir bilan 60 yil birga bosib o'tilgan yo'lga keng nazar soldi.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi **Erkin A'zam**, Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti mudiri **Nodir Jonuzoq**, Bo'stonliq tumani hokimi **Jo'rabeck Ahmedov** o'z so'zlarida Erkin Vohidov hayoti va ijodiga chizgilar berib o'tdilar. Shoirning farzandi **Xurshid Vohidov** iliq xotiralarini bo'lishdi va barchaga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Anjumanda taniqli adiba **Nigora Mannopova** boshchiligidida Farg'ona ijodkorlari va Erkin Vohidov ijod maktabining iqtidorli o'quvchilari ham ishtirok etdilar.

Xalqaro Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** erksevar shoirning ona tilimiz oldidagi xizmatlarini alohida e'tirof etib, yosh adabiyotsevarlar uchun olimpiada tashkillanishi, g'oliblarga esa Nordik universiteti va "Uzreport jurnalistika, media va kommunikatsiyalar akademiyasi"da **Jurnalistika yo'nalishida o'qish uchun grantlar taqdim etilishini** ma'lum qildi.

Adabiy anjuman doirasida Green Hills dam olish maskanida tadbirlar qizg'in davom etdi.

## **Nordikda yana bir muhim memorandum!**

**19.06.2025.**



*Universitet va O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi rahbariyatlari o'rtasida uch rashuv o'tkazildi.*

Muzokaralarda maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimida mazmunni yangilash, innovatsion tadqiqotlar, yangi metodlar va tajriba almashinuvi xususida so'z bordi.

Uchrashuv davomida qo'shma loyihalar, seminar-trening, pedagoglar va mutaxassislar uchun xalqaro tajriba almashuvi, jumladan Finlyandiyada malaka oshirish imkoniyatlari yaratishni ko'zda tutuvchi Memorandum imzolandi.

## **"Prokuror sovrini" olimpiadasi: farg'ononalik matematika o'qituvchilari faol ishtirok etdilar!**

**5.07.2025.**



"Dolzarb 90 kun" doirasida o'tkazilgan bellashuvda 8000 nafardan ziyod talabgor-o'qituvchi ishtirok etdi.

100 nafar o'rniga 105 nafar (ballari teng bo'lgan) o'qituvchi 2-bosqichga yo'l oldi. Farg'ona davlat universitetida viloyatning barcha shahar va tumanlaridan saralangan 105 nafar eng ilg'or matematika va fizika o'qituvchilari final bellashuvda qatnashdilar.

Mazkur olimpiada Farg'ona viloyati prokururasi, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Xalqaro Nordik universiteti va IDC ta'lim markazi hamkorligida o'tkazildi. Farg'ona "ta'lim froni" dagi o'z kasbiga eng fidokor ustozlar nomi aniqlanib, viloyat prokurori B.Ismoilov tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.



## Matbuot xizmatlarining uch kuchi: SMM, AI va mobilografiya o'rganildi

24.06.2025.

Xalqaro Nordik universitetida “**Bojxona organlari matbuot xizmatlarida zamонавиј ко'никмалар: sun'iy intellekt, SMM va mobilografiya**” mavzusida ikki kunlik o'quv seminar o'tkazildi.

Seminarda media sohasida raqamli yondashuvlar, SMM, kontent yaratish va sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'rganishga ahamiyat qaratildi.

Seminar ochilishida media islohotlari va ularning samarasini yana-da oshirishda matbuot xizmatlari oldida turgan vazifalar borasida fikr almashildi. Qoraqalpog'iston, viloyatlar, Toshkent shahri bojxona boshqarmalari, “Toshkent-AERO” bojxona kompleksi, Milliy kinologiya markazi va Bojxona instituti axborot xizmatlarining 25 nafar xodimi ishtirok etib, malaka oshirish Sertifikatiga ega bo'ldilar.

## Nordik magistranti “Oltin qalam” mukofotini qo'lga kiritdi!

28.06.2025.



Xalqaro Nordik universiteti Jurnalistika mutaxassisligi magistranti va “Daryo”ning Andijon viloyati bo'yicha muxbiri **Umidjon Mamarsulov** nufuzli “Oltin qalam” XIX Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovida e'tirofga sazovor bo'ldi! “OAVda e'lon qilingan eng yaxshi milliy kontent (materiallar) uchun” nominatsiyadagi bu mukofot fidokorona mehnat, teran fikr va milliy qadriyatlarga hurmat samarasidir.

Nordikning Menejment ixtisosligi mustaqil izlanuvchisi, “Dunyo” AA bosh mutaxassisi **Farida Islomova** “Oltin qalam” XIX Milliy mukofoti tanlovida internet yo'nalishi bo'yicha **1-o'rинга** loyiq topildi! Xalqaro tanlovda uning ilmiy salohiyati, tahliliy yondashuvi va ijodiy mahorati alohida e'tirof etildi.

Nordik jamoasi nomidan oltin qalam sohiblarini samimiy muborakbod etamiz!

## **Universitet Kengashining 7-son yig'ilishi bo'lib o'tdi 30.06.2025.**



2024/2025 o'quv yili yakunlariga bag'ishlangan Kengashda o'quv va ilmiy faoliyat, klublar ishlari, yozgi ta'til tadbirlari, Alumni platformasi, yangi adabiyotlarni nashrga tavsiya etishga bag'ishlangan qator masalalar ko'rib chiqildi.

Kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilar oldida turgan vazifalar belgilandi.

Ilmiy tadqiqotlar, repositoriy tizimi va doktorantlar faoliyati tahlil qilindi.

Talabalar uchun "Work and Travel" dasturi, ko'ngilochar va sport mashg'ulotlarini samarali tashkillash rejalar belgilandi.

Kengash yig'ilishida rektor Sherzod Mustafakulov Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrasи mudiri Munis Abdullayeva professorlik attestatini topshirdi va samimiy tabrikladi.

Kengashda ko'rilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

### **Yangi nashrlar - kelajak ilmlariga poydevor!**

**2.07.2025.**



+998(55)508-44-00  
[www.nordicuniversity.org](http://www.nordicuniversity.org)

Professor-o'qituvchilarimiz tomonidan tayyorlangan navbatdagи zamонавиyo darsliklar Nordik nashriyoti ko'magida chop etildi.

**"MIKROEKONOMIKA"** (rus tilida) darsligida bozor iqtisodiyoti, talab va taklif, mu-kammal va nomukammal raqobat sir-asrорlari grafik va model asosida tahlil etilgan. Ushbu kitob iqtisodiyotning barcha yo'nalishlari bo'yicha yangi ilmlarni o'rganishda qo'l keladi.

**"MAKROIQTISODIY TAH-LIL"** (rus tilida) darsligi inflatsiya, ishsizlik, milliy hisoblar

tizimi tahlillar va O'zbekiston sharoitidagi dolzARB yondashuvlar bilan boyitilgan manbadir.

**"MAKROEKONOMIKA"** (rus tilida)

darsligi davlat siyosati, iqtisodiy barqarorlik va beqarorlik, makroiqtisodiy qonuniyatlar, bir so'z bilan aytganda iqtisodiy fikrlashni o'stirish uchun zarur qo'llanmadir.

**"O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODI"** darsligida o'zbek xalqining noyob musiqiy merosi, turli janrlardagi aytimlar, maqomlar, mehnat va marosim qo'shiqlari ilk bor tizimli tahlil etilgan. Bu darslik musiqiy madaniyatimizni chuqur anglashda har jihatdan muhim manbadir.

*Bu yangi nashrlar talabalar, mustaqil izlanuvchilar va tadqiqotchilar, soha mutaxassislari uchun yangi ilm va tajribalarni o'rGANISHDA muhim manbalar vazifasini o'taydi.*

**PhD darajasiga yo'l: Nordik seminarida  
dissertatsiyalar muhokamasi****6.07.2025.**

Xalqaro Nordik universiteti Ilmiy kengashi qoshidagi ilmiy seminarda dissertatsiyalar muhokamasi bo'lib o'tdi.

Seminar majlisida universitet mustaqil izlanuvchisi **Jasurbek Turg'unovning** 08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti” ixtisosligida iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishi muhokama qilindi.

**“Sanoat korxonalari rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini bahlash mexanizmini takomillashtirish”** mavzusidagi tadqiqotda ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asoslangan va dolzarb ekani ta'kidlandi.

Shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi **Aziza Mirzraximovan**ning 08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya” ixtisosligidagi **“Elektron sog'liqni saqlash” tizimini takomillashtirishda yangi texnologik yondashuvlar tadqiqoti”** mavzusida tayyorlagan dissertatsiyasi amaliy asoslanganligi e'tirof etildi.

Seminar davomida Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti **Mahliyo Diyarovan**ning 08.00.13 – “Menejment” va 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” tutash ixtisosligidagi **“Qurilish korxonalarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish”** mavzusidagi dissertatsiya ishi keng muhokama qilinib, zarur ilmiy-amaliy tavsiyalar berildi.

*Mazkur seminar innovatsion fikrlar va ilmiy asoslangan yondashuvlarni ilgari surish, shuningdek, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida zamonaviy tadqiqotlar olib borayotgan izlanuvchilarga mustahkam nazariy-amaliy tayanch yaratish yo'lida muhim ahamiyat kasb etdi.*

## Nordik yangi nashrlariga ruxsatnomalar olindi

**11.07.2025.**



Nordik universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan qator darslik va o'quv qo'llanmalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etildi va guvohnomalar taqdim qilindi.

Tasdiqlangan yangi adabiyotlar:

“**Soliqlar va soliqqa tortish**” darsligi (Z.Abdullayev).

“**Maktabgacha ta’limda sog’lom ovqatlantirish texnologiyasi**” o’quv qo’llanmasi (Sh.Hakimova).

“**Menejment**” darsligi (A.Xashimov).

“**Русский язык**” o’quv qo’llanmasi (Z.Kalanova).

“**Xalqaro iqtisodiyot**” o’quv qo’llanmasi (A.Nigmanov).

“**Зеленая экономика**” darsligi (Sh.Mustafakulov, X.Sabirov, R.Mardanova, E.Umarov).

“**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari**” o’quv qo’llanmasi (D.Sabirova, O.Azizov).

“**Mutaxassislikka kirish**” o’quv qo’llanmasi (F.Sofoyeva, D.Usmanbayev).

## XNU Kengashida navbatdagi himoyalar muvaффaqiyatli yoqlandi

15.07.2025.



Nordik universiteti huzuridagi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashda navbatdagi himoya ishlari ko’rildi.

Kengashda **Yorqulov Umidjon Muzaffar o’g’li** “O’zbekiston Respublikasida islomiy moliya industriyasining qo’llab-quvvatlovchi infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish” mavzusidagi nazariy

va amaliy ahamiyatli himoya ishi mohiyati bilan keng tanishtirdi.

Shuningdek, Nordik universiteti mustaqil izlanuvchisi **Umarov Elshod G’ulomovich**ning “Yashil iqtisodiyot rivojlanishining ishlab chiqarish resurslariga ta’sirini baholash” mavzusidagi himoya ishi keng muhokama qilindi.

Har ikki nomzod PhD ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishlari munosib yoqladilar.

## Nordikda imtihon atmosferasi!

**16.07.2025.**



Sebzor kampusida kirish sinovlari o'tkazildi.

Kimdir hayajonlandi, kimdir diqqat bilan jiddiy kurashdi, kimdir esa ishonch bilan javoblarni belgiladi.

Bilimli talabgorlar esa o'zini sinab ko'rib, talabaga aylandilar!

Talabalikka tavsiya etilgan barchaga:  
**Welcome to Nordik Family!**

## Koreya stipendiyasi: talabalar yutug'i!

**17.07.2025.**



*Nordikning Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi Farzona Saidanvarxo'jayeva va Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi Mashhura Xolboyeva Koreya hukumatining eng nufuzli grantlaridan biri GKS (Global Korea Scholarship) stipendiyasini qo'lga kiritdilar!*

Endi ular Koreyaning Xalqaro ta'lrim bo'yicha milliy instituti stipendiya dasturi asosida hamkor universitet - Daeguda bepul ta'lrim oladilar.

O'tgan yili talabamiz Nozima ham ushbu imkoniyatdan foydalangan va xalqaro miqyosda eng ilg'or talabalar qatoriga kirgan edi. Endi navbat **Farzona va Mashhuraga!**

## Nordik oilasi yanada kengaymoqda!

17.07.2025.



Suratlardagi chehralarni ko'ring - ular endi Nordik talabalari!  
Ular imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tishdi.  
O'nlab abituriyentlar talabalikka tavsiya etilishdi.  
Bu ajoyib bosqichni nishonlashmoqda!

## Talabalar ta'tilda ham Nordik bilan!

21.07.2025.



"Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida o'tkazilgan onlayn Quiz viktorinalari va sport musobaqalarida bir guruh talabalarimiz faoliyk ko'rsatishdi.

G'olib talabalarimiz esa esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar!  
Oldinda yanada qiziqarli onlayn/offlayn tadbirlarimiz bor. Talabalar O'z ustida ishlashda davom etadilar!





**Xalqaro Nordik universiteti missiyasi** – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashuv sharoitida ta'lif eksportini oshirishdan iborat!



@nordic\_edu



[www.nordicuniversity.org](http://www.nordicuniversity.org)